

**O‘ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI SHAKLLANISHI,
MEHNAT BOZORI IQTISODIYOTINING BUGUNI, ISTIQBOLLARI
VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR**

Zulfiqarov Xolbek Ubaydulla o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda mehnat bozori shakllanishining asosiy bosqichlari, mehnat bozorining hozirgi holati va uning kelajakdagi istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, unga ta’sir etuvchi omillar, ularning kelib chiqishi va statistik dalillari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, ishchi kuchi, mehnat resurslari, mehnatga layoqatlilik, demografiya, ishsizlik darajasi

Аннотация: В данной статье проводится анализ основных этапов формирования рынка труда в Узбекистане, рассматривается его текущее состояние и перспективы развития. Кроме того, анализируются факторы, влияющие на рынок труда, их происхождение, а также приводятся подтверждающие статистические данные.

Ключевые слова: рынок труда, рабочая сила, трудовые ресурсы, производительность труда, демография, уровень безработицы

Annotation: This article provides an analysis of the key stages in the formation of Uzbekistan’s labor market, examines its current condition, and explores future prospects. In addition, the study reviews the influencing factors, their origins, and presents supporting statistical evidence.

Key words: labor market, workforce, labor resources, labor productivity, demography, unemployment rate

KIRISH

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida davlatning eng asosiy vazifalari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimini topish, mavjud davlat dasturlari ijrosini ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish va aholi turmush darajasini yaxshilash hisoblanadi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mehnat bozorini to‘g‘ri baholash va uni iqtisodiyotning ajralmas qismi ekanligini unutmaslik muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti, akademik I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “Mehnat bozori bo‘lmasa, ishchi kuchi tovarga ayantirilmasa, bozor munosabatlari to‘g‘risidagi gap-so‘zlar og‘izda qolib ketadi”. Respublikamizda mehnat bozori mehnat resurslari bilan yetarlicha ta’minlanganini hisobga olsak, mehnat bozorini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadi mehnatga layoqatli aholi ish bilan bandligining kamayishi, ishsizlikning o‘sishi, yangi ish joylarining kam yaratilishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflatsiyaning mavjudligi, mulkchilikning turli shakllari sekinlik bilan rivojlanishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning sustligi, haqiqiy mehnat daromadlarining kamayishi kabi sharoitlarda ishchi kuchiga talabni

oshirish va uning taklifini kamaytirish bo‘yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehnat bozori masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar turli yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. J.Keynsning “The General Theory of Employment, Interest and Money” asari iqtisodiyotning talab va taklif munosabatlariga ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ushbu nazariyalar mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita bog‘liqdir. Q.X. Abduraxmonovning “Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot” asari O‘zbekiston mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib, davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarning iqtisodiy ta‘sirini tahlil qiladi. Sh.R. Xolmo‘minovning “Mehnat bozori iqtisodiyoti” darsligi esa mehnat bozori jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizmlar, mehnatga layoqatlilik va bandlik tizimlarini tahlil qiladi. Ushbu asar O‘zbekistonda mehnat bozorini barqaror rivojlantirish strategiyalarini belgilash uchun asosiy ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bular bilan bir qatorda, xalqaro tajribalar, jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mehnat bozori islohotlariga oid tadqiqotlar va xalqaro mehnat tashkilotining hisobotlari ham O‘zbekiston mehnat bozorini rivojlantirish bo‘yicha zaruriy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mehnat bozorining shakllanishi, hozirgi holati va istiqbollarini o‘rganish uchun bir nechta metodologik yondashuvlar qo‘llanildi. Mehnat bozorining tarkibiy qismlari, ularga ta‘sir etuvchi omillar va ularning o‘zaro aloqasi o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi tomonidan e‘lon qilingan ma‘lumotlar, rasmiy hisobotlar asosida mehnat bozori holati tahlil qilindi. Xorijiy mamlakatlarning mehnat bozori tajribasi O‘zbekiston sharoitiga mos keluvchi jihatlari bilan solishtirildi. Mehnat bozoridagi ishsizlik, bandlik va iqtisodiy faollik masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar va ekspert tahlillari o‘rganildi. Ushbu metodologiyalar asosida mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinib, ishsizlikni kamaytirish hamda bandlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shu kabi iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda Sh.R. Xolmo‘minovning “Mehnat bozori iqtisodiyoti” darsligida O‘zbekistonda mehnat bozorining shakllanishi to‘rt bosqichga ajratiladi. Mehnat bozori rivojlanishining birinchi bosqichida (1991–2000-y.y.) mehnat birjasi va bandlik xizmatlarining dastlabki tashkilotlarini tashkil etish, aholining ish bilan bandlik va ishsizlik holatlarini tahlil qilish hamda yollanma xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasida ijtimoiy mehnat munosabatlarini tartibga solish kabi qator vazifalar bajarilgan. Mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, asosida qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan ish o‘rinlarini yaratish, moliyaviy yordam va kichik biznesni rivojlantirish dasturlarini tadbqiq etish va mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish ikkinchi bosqichda (2001–2010-y.y.) bajarilgan vazifalar markazida bo‘ldi. Mehnat bozorini shakllantirishning uchinchi bosqichida (2011–2020-y.y.) bandlik xizmati infratuzilmasining qudratli tizimini tashkil etish, oqilona bandlikni tashkil etish va mahalliy xodimlarning raqobatbardoshligini

oshirish asosiy vazifalar bo'ldi. O'zbekistonda mehnat bozorining bugungi holati bir qator yangi vazifalar va yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev faoliyatlarining birinchi yilidan boshlab aholining ijtimoiy hayotini yaxshilashga, bandlik xizmatining tez rivojlanadigan tizimini shakllantirishga va ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishga keng miqyosda e'tibor qaratdilar. Bu islohotlar natijasini O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan quyidagi jadvalda ham ko'rish mumkin (1-jadval). Ushbu jadvalda O'zbekiston Respublikasining umumiy va hududlar bo'yicha bandlik darajasi 2010 yildan 2023 yilgacha ko'rsatilgan. Umumiy tendensiyaga ko'ra, bandlik darajasi yillar davomida nisbatan barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatadi, ammo ba'zi hududlarda pasayish yoki o'zgaruvchanlik kuzatiladi. Respublikada umumiy bandlik darajasi 2010 yildagi 66,9% dan 2023 yilda 67,9% gacha o'sgan. Toshkent shahri har yili eng yuqori bandlik darajasini ko'rsatib, 2023 yilda 82,3% ni tashkil etadi. Bunga sabab qilib, shaharda kichik va o'rta biznesning yaxshi yo'lga qo'yilganligini aytish mumkin. Boshqa viloyatlarda ham bunga e'tibor qaratilmoqda va o'sish tendensiyalari kuzatilmoqda. Xususan, Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 8-yanvar kuni aholi bandligini oshirish va tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil etadi. Joriy yilda mehnat bozoriga yana 2,4 mln kishi kirib keladi. Shuni inobatga olib, 2024-yilda yangi ish o'rinlari tashkil etish hisobiga 5 mln kishini ish bilan ta'minlash ko'zda tutilgan. Jumladan, xizmatlar sohasida 2,5 mln, qishloq xo'jaligida 2,1 mln, investitsiya loyihalari va sanoatda 250 ming, qurilishda 140 ming ish joyi yaratish imkoniyati bor, deya ta'kidlandi taqdimotda.

1-jadval

2010-2023-yillarda bandlik darajasi (foizda) [5]


Bandlik darajasi/Уровень занятости/Employment rate

Klassifikator	Klassifikator_ru	Klassifikator_en	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	Республика Узбекистан	Republic of Uzbekistan	66,9	66,2	66,6	67,1	67,7	68,2	68,7	69,2	67,4	68,1	66,0	67,0	67,2	67,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	Республика Каракалпакстан	Republic of Karakalpakstan	57,3	57,0	57,4	57,7	57,9	58,1	58,1	58,3	62,9	62,9	62,0	61,1	61,6	62,9
Andijon viloyati	Андижанская область	Andijan region	69,3	68,6	69,0	69,9	70,8	71,5	72,3	73,0	69,6	70,1	66,5	68,2	69,5	70,6
Buxoro viloyati	Бухарская область	Bukhara region	74,5	73,5	74,1	74,4	74,0	73,4	72,9	72,5	70,7	69,3	68,3	67,2	67,2	68,7
Jizzax viloyati	Джизакская область	Jizzakh region	56,8	56,0	56,0	56,5	57,3	58,1	59,1	60,0	61,6	67,1	66,2	67,5	66,2	66,3
Qashqadaryo viloyati	Кашкадарьинская область	Kashkadarya region	61,7	61,1	61,2	61,8	62,5	63,3	64,3	65,4	64,8	63,9	60,9	62,2	61,9	61,9
Navoiy viloyati	Навийская область	Navoi region	75,3	74,6	74,7	74,1	73,6	73,2	72,8	72,4	69,2	69,5	66,8	68,3	67,7	69,8
Namangan viloyati	Наманганская область	Namangan region	57,4	56,6	57,2	58,1	59,3	60,5	61,9	63,4	63,8	66,4	65,0	65,5	64,8	65,9
Samarqand viloyati	Самаркандская область	Samarkand region	64,7	64,0	64,7	65,4	66,5	67,6	68,7	69,7	66,3	65,3	63,2	63,7	64,7	65,0
Surxondaryo viloyati	Сурхандарьинская область	Surkhandarya region	62,5	62,2	62,3	62,7	63,4	64,3	65,4	66,6	65,2	67,0	63,9	64,5	64,2	63,8
Sirdaryo viloyati	Сырдарьинская область	Syrdarya region	72,0	72,1	72,2	72,5	72,9	72,2	71,7	71,1	70,5	68,9	64,8	64,5	64,0	63,8
Toshkent viloyati	Ташкентская область	Tashkent region	71,5	71,8	72,9	74,0	75,1	75,3	75,4	75,2	71,4	71,4	68,2	72,4	71,0	72,2
Farg'ona viloyati	Ферганская область	Fergana region	69,4	67,9	68,0	68,3	68,8	69,1	69,6	69,9	66,0	67,5	65,1	66,2	67,1	68,4
Xorazm viloyati	Хорезмская область	Khorezm region	63,2	63,3	63,9	64,3	65,0	65,6	66,3	66,9	64,6	66,1	63,7	64,0	64,7	66,9
Toshkent shahri	город Ташкент	Tashkent city	81,6	80,7	80,7	80,7	80,9	81,1	81,0	80,8	77,5	80,1	81,7	81,3	82,5	82,3

Amalga oshiralayotgan barcha islohotlar O‘zbekiston mehnat bozori iqtisodiyotini yaxshilash, aholi bandligini oshirish va aholining ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini farovonlashtirishga qaratilgan. Buni O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yildagi statistikasi misolida ko‘rish mumkin (1-rasm). O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozoridagi iqtisodiy faollik va bandlik holatini aks ettiruvchi diagrammada 2023-yilning yanvar-mart oylariga oid asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan. Bu statistikaga ko‘ra, mamlakatda jami mehnat resurslari 19,644,011 kishini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich ishga yaroqli aholi sonini ifodalaydi va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega, chunki katta ishchi kuchi ishlab chiqarish quvvatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, iqtisodiy faol aholining umumiy soni 15,034,183 kishiga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich mamlakatning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori faollikni bildiradi. Iqtisodiy nafaol aholi soni esa 4,609,828 kishini tashkil etadi. Bu guruh, asosan, o‘qiyotganlar, uy bekalari, nafaqaxo‘rlar va mehnatga qiziqishi yo‘q bo‘lgan shaxslarni o‘z ichiga oladi. Ularni mehnat bozoriga jalb qilish orqali iqtisodiy o‘rishga hissa qo‘shish mumkin. Iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo‘lgan aholi soni 6,298,249 kishini tashkil qiladi va bu ko‘rsatkich soliq tushumlarini oshirishda hamda davlat byudjetini ko‘paytirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo‘lganlar soni 5,619,941 kishi bo‘lib, ular soliq to‘lash va ijtimoiy himoyadan mahrum. Norasmiy sektorning yuqori darajada bo‘lishi iqtisodiy jihatdan noaniqliklarga olib kelishi mumkin, lekin u bandlik muammolarini qisqa muddatda hal qilishda yordam beradi. Bundan tashqari, ishsizlar yoki ishga joylashtirishga muhtoj shaxslar soni 1,322,086 kishini tashkil etadi. Bu ulushni kamaytirish uchun davlat tomonidan yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi sektorlarni rag‘batlantirish muhimdir. Shuningdek, Respublikadan tashqariga ishlash uchun ketganlar soni 1,793,907 kishini tashkil etadi.

1-rasm

O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozori statistikasi 2023-yil yanvar-mart oylarida (ming kishi) [5]



O‘zbekiston mehnat bozorini kelajakda o‘shish tendensiyasi kutmoqda va bunda mehnat resurlarining oshishi, davlat tomonidan qilinayotgan islohotlar, xorijiy investitsiyalarning kirib kelayotgani, chekka hududlarni ham hisobga olgan holda xususiy va yakka tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishga berilayotgan e‘tibor va aholining demografik holati sezilarli ahamiyatga ega. O‘zbekiston aholisi 2024-yil boshiga ko‘ra, 36,8 million kishini tashkil etadi. 2020-2023- yillarda aholining o‘shish sur‘ati 2,1 foizgacha tezlashgan yoki mutlaq hisobda yiliga taxminan 700-800 ming kishiga oshgan. Taqqoslash uchun: 2010-2019-yillarda o‘rtacha o‘shish sur‘ati 1,7 foiz yoki 500-600 ming kishini tashkil qilgan. Shu bilan birga, aholining salmoqli qismi (57 foiz) mehnatga layoqatli yosh toifasiga qo‘shilgan. 2010-yillardan boshlab mehnatga layoqatli aholining umumiy aholi tarkibidagi ulushi asta-sekin kamayib borgan, bu 2000-yillardan hozirgi vaqtgacha tug‘ilish darajasining o‘shib kelayotgani bilan bog‘liq. Bu, bir tomondan, qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda demografik yukning ortib borayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan, uzoq muddatli istiqbolda ko‘proq ish o‘rinlarini yaratish zarurati oshishiga olib kelishi mumkin. O‘zbekiston aholisi tez o‘shib borayotgani mamlakat mehnat bozoriga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi va kelajakda bu tendensiya iqtisodiyot uchun katta imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Aholi o‘shish sur‘atining oshishi natijasida mehnatga layoqatli yoshga kiradiganlar soni yildan-yilga ko‘paymoqda, bu esa mehnat bozoriga ko‘proq ishchi kuchining kirib kelishini anglatadi. Biroq, mehnatga layoqatli aholining umumiy aholi tarkibidagi ulushi kamayib borayotganini hisobga olsak, bu kelajakda mehnat bozoriga demografik bosimni oshiradi. Bir tomondan, yosh avlodning o‘shishi kelajakda iqtisodiy faollikni oshirishi va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish uchun kengroq mehnat resurslarini yaratishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo‘lib, u ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va davlat islohotlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va xalqning farovonligini oshirish maqsadida bir qancha muhim tashabbuslar amalga oshirdi. Mehnat bozoridagi ishsizlik darajasi, norasmiy bandlik va mehnatga yaroqli aholining barqaror darajada bandligi kabi ko‘rsatkichlar o‘zgarib bormoqda. Shu bilan birga, mamlakat aholisi o‘shishi bilan yangi ish o‘rinlarini yaratish va iqtisodiy faol aholining bandligini ta‘minlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Kelajakda mehnat bozorini yanada rivojlantirish, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi sektorlarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, yosh avlodga sifatli ta‘lim va kasb-hunar imkoniyatlarini taqdim etish orqali mehnat bozorida malakali ishchi kuchining o‘shishini ta‘minlash maqsadga muvofiqdir. Demak, mehnat bozorini barqaror va samarali rivojlantirish orqali O‘zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirib, xalq farovonligini ta‘minlash yo‘lida yangi bosqichlarga erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni “O‘ZBEKISTON-2030 strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son 2023-yil 11-sentabr <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
2. Keynes J.M. “The General of Employment, Interest and Money. International Relations and Security Network Primary Resours” ISN Zurich. 1936.-190 b.
3. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. T.: Fan, 2019, - 230 b.
4. Sh.R. Xolmo‘minov Mehnat bozori iqtisodiyoti. Darslik. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 160 b.
5. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
6. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz